

ZO'RAVONLIKSIZ JAMIYAT – XAVFSIZ KELAJAK ASOSI

Sobirova Umeda Mirmadiyevna

Samrqand viloyati Samarqand tumani 22- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatda uchrayotgan zo'ravonlik holatlari, ularning kelib chiqish sabablari, shaxs ruhiyatiga ta'siri hamda zo'ravonlikning oldini olishda ta'lim muassasalari, oila va psixologik xizmatlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, zo'ravonliksiz muhitni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, psixologik himoya, bolalar huquqi, xavfsiz muhit, profilaktika, hamkorlik.*

KIRISH

Bugungi kunda zo'ravonlik muammosi jamiyatning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zo'ravonlik nafaqat jismoniy zarar yetkazadi, balki shaxsning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va kelajak hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar zo'ravonlikka nisbatan eng himoyasiz qatlam hisoblanadi. Shu bois zo'ravonlikning oldini olish, unga qarshi kurashish va xavfsiz muhit yaratish har bir jamiyat a'zosining muhim vazifasidir.

Zo'ravonlik tushunchasi va uning turlari:

Zo'ravonlik — bu shaxsga nisbatan kuch ishlatish, tahdid qilish, majburlash yoki ruhiy bosim o'tkazish orqali zarar yetkazishdir. Zo'ravonlik quyidagi turlarga bo'linadi:

Jismoniy zo'ravonlik – urish, tan jarohati yetkazish;

Psixologik zo'ravonlik – haqorat, kamsitish, qo'rqitish;

Ijtimoiy zo'ravonlik – jamoadan ajratish, e'tiborsizlik;

Axborot zo'ravonligi – internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali bosim o'tkazish.

Bu holatlar bolalarda qo'rquv, ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin.

Zo'ravonlikning shaxs rivojiga ta'siri:

Zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda o'z-o'zini baholashning pasayishi, o'qishga qiziqmaslik, xulq-atvorda salbiy o'zgarishlar kuzatiladi. Ba'zi hollarda bunday bolalar tajovuzkor yoki, aksincha, haddan tashqari tortinchoq bo'lib qoladi. Agar muammo vaqtida aniqlanmasa, bu holatlar uzoq muddatli psixologik muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Zo'ravonlikning oldini olishda psixologik xizmatning o'rni:

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar zo'ravonlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ular:

- o'quvchilar bilan diagnostik va profilaktik ishlar olib boradi;
- zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan individual suhbatlar tashkil etadi;
- ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda tushuntirish ishlari olib boradi;
- sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zo'ravonlikka qarshi kurashish — bu faqatgina jazolash emas, balki uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishdir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali zo'ravonliksiz, sog'lom va xavfsiz muhit yaratish mumkin. Har bir bola hurmat, e'tibor va himoyaga loyiq. Zo'ravonliksiz jamiyat esa barqaror va farovon kelajak garovidir.

Bolalar jamiyatning eng nozik va himoyaga muhtoj qatlamidir. Ularga nisbatan sodir etiladigan har qanday zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy rivojlanishga ham jiddiy zarar yetkazadi. Bugungi kunda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning turli shakllari uchrab, bu holat jamiyat oldiga muhim mas'uliyat yuklamoqda. Shu bois mazkur muammoni erta aniqlash va oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va turlari

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik — bu bola sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, unga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazuvchi har qanday harakatdir. U quyidagi turlarga bo'linadi:

Jismoniy zo'ravonlik – urish, tan jarohati yetkazish;

Psixologik zo'ravonlik – haqoratlash, qo'rqitish, doimiy tanqid;

Beparvolik (e'tiborsizlik) – bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirmaslik;

Axborot zo'ravonligi – internet orqali tahdid, kamsitish.

Mazkur holatlar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini susaytiradi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zo'ravonlikning bola psixikasiga ta'siri

Zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda qo'rquv, xavotir, tajovuzkorlik yoki tortinchoqlik kuzatiladi. Ayrim bolalar o'qishga qiziqishini yo'qotadi, boshqalar bilan muloqotdan qochadi. Uzoq muddatli zo'ravonlik esa depressiv holatlar va xulq-atvor buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Zo'ravonlikning oldini olishda oila va maktab hamkorligi

Bolani zo'ravonlikdan himoya qilishda oila va ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda ishlashi muhim. Ota-onalar farzandining hissiy holatiga e'tiborli bo'lishi, pedagoglar esa o'quvchilardagi xulqiy o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashi zarur. Maktab psixologi tomonidan olib boriladigan profilaktik mashg'ulotlar bolalarda o'zini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Psixologik xizmatning o'rni

Psixolog bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda muhim mutaxassis hisoblanadi. U:

diagnostik va korreksion ishlar olib boradi;

zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan individual suhbatlar o'tkazadi;

ota-onalar va pedagoglar uchun tushuntirish ishlari tashkil etadi;

sog'lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish har bir jamiyat a'zosining burchidir. Zo'ravonliksiz muhitda voyaga yetgan bola sog'lom, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanadi. Shu sababli bolalarni himoya qilish, ularning huquqlarini ta'minlash va xavfsiz muhit yaratish jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim.

O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik — bu mamlakat hududida yashovchi ayol jinsiga mansub shaxslarga nisbatan sodir etiladigan jismoniy, ruhiy, jinsiy hamda ijtimoiy tazyiq va jinoyatlar majmuasidir. Ushbu zo'ravonliklar

ayollarning insoniy sha'ni, qadr-qimmati va asosiy huquqlarining buzilishiga olib keladi.

Amaliyotda bunday holatlar, asosan, erkaklar tomonidan o'z turmush o'rtog'i, yaqin sherigi yoki oilaviy munosabatdagi ayollarga nisbatan sodir etiladi. Zo'ravonlik shakllariga kaltaklash, psixologik bosim o'tkazish, haqoratlash, qo'rqitish, majburiy jinsiy aloqaga undash, oilaviy zo'rlash, jinsiy tajovuz va hatto qotillik holatlari kiradi.

Shuningdek, ayollarga nisbatan zo'ravonlik faqat oila doirasida emas, balki jamiyatda ham uchraydi. Bunga majburiy nikoh, ko'cha bezoriligi, ta'qib qilish, internet orqali kamsitish va tahdidlar (cyberbullying), istalmagan jinsiy harakatlar hamda bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik kabi holatlar misol bo'la oladi.

Bu kabi zo'ravonliklar ayollarning ruhiy salomatligiga, ijtimoiy faolligiga va jamiyatdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanganlarga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish hamda jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ayollarga nisbatan zo'ravonliklarda aralashmaslik, bunga "oila siri" deb qarash mazkur muammoning jamiyatda keng ildiz olib ketishiga olib keladi. Negaki erkak ayolga do'q ura, shikast yetkazsa, do'pposlasa va bunga chora ko'rilmasa, gap oiladan tashqariga chiqarilmasa, albatta bu holat doimiy tus oladi. Oiladagi zo'ravonlik nafaqat jismoniy, psixologik, balki bu jinsiy yoki iqtisodiy zo'ravonlik ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Zo'ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo'ravonlik turlari, og'irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so'nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotinqizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murossasizlik muhitini yaratish uchun choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator

xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi.

Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: “Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas“, deb qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“ Qonunining maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Aytish kerakki, shu kunlarda yurtimizda “Zo‘ravonliklarga qarshi birgalikda kurashamiz!” mavzusida aksiya o‘tkazilmoqda. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu "jins belgisiga asoslangan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zararga olib keladigan yoki ayollarga aziyat yetkazadigan, shuningdek, bunday harakatlarning tahdidlari, jamiyat yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, majburlash yoki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir. U xotin-qizlarni tenglik, xavfsiz hayotdan mahrum qiladi, inson qadr-qimmatini yerga uradi va asosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, butun dunyoda bu muammoga qarshi kurash olib boriladi.

O‘zbekistonda ham keyingi vaqtlarda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish,

ularga yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu munosabat bilan og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida turli hil zo'ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni ruhiy qo'llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, zo'ravonlikka qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik e'tiborini ushbu masalaga jalb etishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

XULOSA

Zo'ravonlikning oldini olishda ko'p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo'ravonlik darajasi va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan omillar o'rtasida kuchli bog'liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, bolalar va ota-onalar o'rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo'qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo'lib kelgan bo'lsada, zo'ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SAIDOV .A TOJIMATOV .U "HUQUQ NAZARIYASI" T.ADOLAT 2001y.22bet
2. SAIDOV .A TOJIMATOV .U "HUQUQ NAZARIYASI" T.ADOLAT 2001y.35bet
3. Бешкарев А.А. «Письма русского путешественника» Н.М. Карамзина: Проблемы поэтики: дис. ... канд. филол. наук. Сыктывкар, 2003. -С.33.
4. Ziyo.net